

*Yoshlar o‘rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib etish,  
jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun muhit va shart-sharoit yaratish zarur.  
Shavkat MIRZIYOYEV*



# IJODIY PARVOZ

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy, axborot gazetasi*

Iste’dod va ijod qonuniyatları insondan bilim va malaka, muntazam faoliyk, yangiliklar yaratish uchun imkoniyatlar, halol bellashuvlar oqibatida mardlar g‘olib bo‘lajak sog‘lom raqobat maydonida kuchli va matonath shaxs bo‘lishni talab etadi. Yorqin iste’dodlilar maydoni sanalmish O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida 2000-yildan buyon har yili an’anaviy tarzda o’tkazib kelinayotgan “Talaba-yoshlar ijodiyoti” ko‘rik-festivali ham aynan institutda tahsil olayotgan bilimli, iqtidorli talaba-yoshlarni eng kuchlilarini aniqlash, munosiblarni taqdirlash yo‘lidagi ulkan strategik dasturdir. Bu yilgi ko‘rik-festival dasturiga muvofiq 24 kun davomida mahoratli va iste’dodli talaba-yoshlar ishtirokidagi yuqori darajadagi spektakllar, filmlar, ashula va qo’shiqlar, konsert dasturlari, go‘zal kompozitsiyalar namoyish etildi. Ijodiy ishlar nufuzli hay’at a’zolari, malakali professor-o‘qituvchilar, tajribali mutaxassislar tomonidan baholanib borildi hamda festivalning yopilish marosimida maxsus nominatsiyalarga munosib deb topilgan talaba-yoshlarga faxrlı diplomlar, esdalik sovg‘alari va pul mukofotlari tantanali ravishda topshirildi.

## MAHORATLI TALABA — YOSHLARNING YUTUQLARI



“Talaba-yoshlar ijodiyoti” ko‘rik-festivalining yopilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston axborot va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi qoshidagi Maxsus avariya-tiklash bosh-qarmasi “Impuls” harbiy ashula va raqs ansamblı vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo’shiqlari bilan, Toshkent Harbiy okrugi Chirchiq gornizoni ofitserlar uyining harbiy orkestri shaxsiy tarkibi esa qo‘l jangi tryuklari va turli jangovor harakatlar bilan ko‘rgazmali chiqishlar qilishdi. Mazkur jarayonlar yoshlar qalbida oliv vatanparvarlik hamda ona xalqimizga bo‘lgan hurmat tuyg‘ularini shakkantirish maqsadida yuqori savyada tashkillashtirilganligi

bilan barchani e’tiborini tortdi.

Shu bilan birga, uzoq kutilgan haya-jonli daqiqalar institut hovlisida betakror konsert shousiga ulanib ketdi. Nominatsiyalarga ko‘ra “Yilning eng faol talabasi” – Mamadaliyeva Oynigor, “Yilning eng yaxshi san’at va madaniyat targ‘ibotchisi” – Zariphan Kamilla, “Yilning eng yaxshi kitobxon talabasi” – Saksonova Sarvinoz, “Yilning eng yaxshi maqola muallifi” – Ahmadjonova Mohinur, “Yilning eng yaxshi badiiy so‘z ijrochisi” – Nursaidov Akbar, “Yilning eng yaxshi vokal yo‘nalishidagi ayol xonandasasi” bo‘yicha 2 nomzod: Iz-zatillayeva Zardiana va Yakubova Reyna, “Yilning eng yaxshi vokal yo‘nalishi-

*O‘zbekiston yoshlar ittifoqi  
tashkil etilgan kun —  
30 iyun yurtimizda  
Yoshlar kuni sifatida  
keng nishonlanmoqda.*



dagi erkak xonanda” – Karimjonov Doniyorbek, “Yilning eng yaxshi mumtoz yo‘nalishidagi erkak xonandasasi” – Hamidov Sardor, “Yilning eng yaxshi xor dirijyori” – Musayeva Nilufar, “Yilning eng yaxshi orkestr dirijyori” – Abdullayev Zuhiddin, “Yilning eng yaxshi akademik yo‘nalishdagi sozandasasi” – Ummataliyev Abubakr, “Yilning eng yaxshi an’anaviy yo‘nalishdagi sozandasasi” – Qambarov Mahmudjon, “Yilning eng yaxshi o‘zbek marosimlari sahnalashtiruvchisi” – Javliyev Dadaxon, “Yilning eng yaxshi ayol roli ijrosi” – Usmonova Madina, “Yilning eng yaxshi erkak roli ijrosi” – Tojiyev Navro‘zbek, “Yilning eng yaxshi ayol epizodik roli” uchun Teshaboyeva Sitorabonu “Nodirabegim” spektaklidagi Kanizak roli uchun, “Yilning eng yaxshi erkak epizodik roli” uchun Jumabayev Axmed “Togiz tonkildak xam bir shinkildek” spektaklidagi Chol personaji uchun, “Yilning eng yaxshi rejissyorlik filmi” – Abdurahimova Dilshodaning “Qulin” filmi uchun, “Yilning eng yaxshi operatorlik ishi” uchun Atabayev Baxtiyor, “Yilning eng yaxshi ovoz rejissyorlik ishi” nominatsiyasida Xo‘jayev Asror, “Yilning eng yaxshi dramaturgi” – Hamroyev Sardorbek, “Yilning eng yaxshi diplom spektakli” – “Nodirabegim” asari taqdirlanishdi. Qolaversa, ko‘rik-festivalda homiylar O‘zbek

milliy akademik drama teatri, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri, Muqimiyy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri, O‘zbekiston davlat satira teatri, O‘zbek davlat qo‘g‘irchoq teatri, “O‘zbekkino” Milliy agentligi tomonidan iste’dodli deb topilgan talaba-yoshlarga qo‘srimcha rag‘batlantiruvchi nominatsiyalar, esdalik sovg‘alar va pul mukofotlari berildi.

Badiiy kecha davomidagi dasturda namoyish etilgan barcha ijodiy chiqishlar yig‘ilganlar qalbidan chuqur joy egalladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ko‘rik-festivalning ko‘tarinki shukuhda o’tkazilganligida institut rektori, professor Ibrohim Yo‘idoshev, Hay’at a’zolari, Ma’naviyat bo‘limi xodimlari kabi fidoyi shaxslarning xizmatlari katta bo‘ldi.

Biz “Talaba-yoshlar ijodiyoti” ko‘rik-festivalida eng munosiblarni taqdirlash, ularning mahoratlarini munosib tarzda baholashga e’tibor qaratib, mazkur harakatlarimiz orqali kelgusida iste’dodli talaba-yoshlarimiz bundan-da ulkan yutuqlarga erishishlarini maqsad qilib qo‘ydik. Istagimiz, iste’dodlilar maydonida munosiblar taqdirlanaverishsin!

**Davlat MULLAJONOV,**  
**O‘zbekiston davlat san’at va**  
**madaniyat instituti**  
**Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha**  
**prorektori**



2018 йил 6 июнь куни Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳаларида тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли хамда 2018 йил 7 май санасидаги “Иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига инновацияларни жорий этиши механизмларини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-3698-сонли Қарорларида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида институтнинг “Қўғирчоқ театр санъати” кафедраси хамда Республикада ижодий фаолият олиб бораётган ўнта давлат қўғирчоқ театрлари ҳамкорлигига “Республика давлат қўғирчоқ театрлари профессионал фаолиятини такомиллаштиришнинг илмий-амалий ечимлари” мавзусида Республика илмий-амалий семинари бўлиб ўтди.

## РЕСПУБЛИКА ДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИ профессионал фаолиятини таъминлаштиришнинг илмий-амалий ечимлари

Семинарни Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти илмий ишлар бўйича проректори Г.Холикулова очиб берди. Шундан сўнг, марказий маъruzalар тингланди. Маъruzachilar санъатшунослик фанлари доктори С.Қодирова “Қўғирчоқ театр санъатига илмий назар”, кафедра профессори, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси М.Ашуррова “Қўғирчоқ театрининг ижтимоий аҳамияти, профессионал фаолиятдаги муаммо ва ечимлар” ва Д.Юлдашева “Важные аспекты проблем театра кукол на современном этапе (на премьере Узбекистанского государственного театра кукол)” мавзусидаги маъruzalari тингланди.

Улар ўз маъruzalariда бугун жамиятимизда кечётган ислоҳотлар, ҳар бир соҳада бўлгани каби қўғирчоқ театр санъатидаги ижодий янгиликлар, мавжуд муаммолар ва уларнинг ечими юзасидан ўз қарашларини семинар иштирокчилари билдирилар. Бугун давринг ўзи эскича қарашларни парчалаб, новаторлик, янги гоя ва ишланмаларни ишлаб чиқаришга жорий этишини тақозо этмоқда. Бу маънода мазкур илмий-амалий семинарда соҳани янада ривожлантириш, таълим ҳамда амалиёт ўртасидаги интеграцияга тўсик бўлаётган обьектив ва субъектив сабабларни, ечимини кутаётган долзарб масалаларни бартараф этиши механизмларини ишлаб чиқиши юзасида сўз боради. Зеро, “Қўғирчоқ театр санъати” кафедрасидаги таълим йўналишлари талabalari, театрнинг эртанги ижодий жа-

моалари сафини тўлдириш билан бирга, унинг репертуарини шакллантирувчи куч сифатида намоён бўладилар.

Ҳар бир маъruzadan сўнг семинар иштирокчilari ма- сала юзасидан фикр, мулоҳазаларини билдириб, баҳс-мунозаралар бўлиб ўтди.

Яна бир муҳим масала: соҳада тинимиз ижодий жа- раёнлар давом этаётган бўлса-да, уни замонавий, илғор хорижий тажрибалар билан киёсий таҳлил килинган ҳолда тадқиқ этилмаётгани кайд этилди. Муаммоларни тўпланиб колгани илмий ёндошувнинг керакли даражада бўлмаётганида, фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг узвийлигига эришилмаганидадир. Бир томондан “Қўғирчоқ театр санъати” кафедрасидаги битирув малакавий ишлари, магистрлик диссертациялари замонга мос илмий топилмаларга бой бўлишига карамай, ишлаб чиқаришга татбиқ этилмаганида бўлса, театрлар ҳам ўз муаммоларига ечим кидириб институттага мурожаат этмаганларидандир. Шу куни семинар доирасида хеч ким вазиятга бефарқ бўлмади. Аввало, ҳар бир театрнинг директори ва бош режиссёrlарининг иштироки масъулиятдан дарак десак, кадрлар буюртмачиси сифатида бундан кейин ка- федра билан мақсадли, манзилли иш ташкил этилишига келишилди. Келишувнинг амалий натижаси ўларок то- монлар мақсад ва вазифалари аниқ акс эттирилган шартномалар имзоланди. Унга кўра энди театрларни таълим жараёнидаги меъёрий хужжатларни шакллантириша-



буортмати сифатида талаблари инобатга олинни ишлаб чиқиладиган бўлди. Худди шу каби талабаларнинг амалиёт даврининг ҳар бир босқичини шакллантиришда тегатр жамоаси томонидан натижакорлик асосида ташкил этишга келишилди.

Кафедрада амалга оширилган илмий ишланмалар ўкув лабараторияларида тажрибадан ўтгач, албатта профессионал театр саҳнасига олиб ўтилиши орқали талабаларнинг малакасини оширишга келишиб олинди.

Семинарни ўтказишдан мақсад ёш авлодни баркамол этиб тарбиялаш, маънавий оламини юксалтириш, буюк аждодларимизга муносиб авлод бўлишлари йўлида хизмат қилиб келаётган қўғирчоқ театр санъатининг бебаҳо анъаналарини давом эттирган ҳолда замонавий, жаҳоннинг илғор мамлакатлари эришаётгандан ютуқларини соҳага татбиқ этиши орқали бу санъат турининг ижтимоий ўрни ва аҳамиятини янада оширишга қаратилган фикр-мулоҳазалар, баҳс-мунозаралар асосида муаммо ва ечимларни илмий ўрганишдан иборат эди.

Олий таълим, фан ва ишлаб чиқариш ўртасидаги инновацион ҳамкорлик ва интеграцияни янада таъминлаштириш, кафедрада олиб бораётган илмий тадқиқот йўналишларини ҳам белгилаб олишда муҳим асос бўлиб кизмат қилди.

**Аъзамжон АБДУХАЛИЛОВ,**  
**“Қўғирчоқ театр санъати” кафедраси мудири**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Hay’at qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o‘qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish Respublika ilmiy-amaliy markazi (RIAIM) tomonidan hamda O‘zbekistondagi Britaniya Kengashi bilan hamkorlikda “ESP Reform: ENSPIRE-U” (Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan inglez tilini o‘qitish) doirasida loyiha amalga oshirilmoqda. Loyihaga Respublikadagi 31 ta Oliy ta’lim muassasalari taklif etildi.

## MAXSUS MAQSADLARGA YO‘NALTIRILGAN INGLIZ TILINI O‘QITISH BO‘YICHA O‘QUV REJA VA DASTURLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Joriy yilning 10-19-may kunlari loyiha doirasida ishchi guruhning Buyuk Britaniyalik ekspert Jeff Stenford ishtirokidagi seminar-trening o’tkazildi. Seminar treningda O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Tillar va adabiyot” kafedrasи o‘qituvchisi Gulnoza Aripova ishtirok etdi. Seminar-trening doirasida quydagi masalalar muhokama qilindi:

- Maxsus yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;
- Turli yo‘nalishlar uchun inglez tilidagi asosiy so‘zlar glossariysini yaratish;
- Yangi o‘quv dasturi bo‘yicha namunaviy dars rejasi va tarqatma materiallar tayorlash;
- Loyiha materiallarini barcha OTM o‘qituvchilariga yetkazish maqsadida ularning elektron variantini maxsus MOODLE platformasiga joylashtirish.

Loyihada ishtirokchilarining ta’lim muassasalariga Britaniya Kengashi tomonidan kitoblar taqdim etildi. Shu jumladan institutimizga 846.95 yevrolik kitoblar taqdim etildi. Kitubxonada talabalar uchun ingliz tilini o‘rganish maxsus markazi tashkil etilib, ingliz tilidagi barcha kitoblar ushbu markazga joylashtirildi. Kelgusida ham Britaniya kengashi institutimiz bilan hamkorlikni davom ettirib, ingliz tilidagi kitoblarni taqdim etishini ta’kidlab o’tdi.

2017-yil 3-avgust kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyoilari vakillari bilan o’tkazgan uch-



rashuvlarida ta’kidlaganlaridek madaniyat va san’at, ommaviy axborot vositalari va adabiyotni yangi bosqichga ko‘tarishimiz kerak. Ajdodlarimiz xotirasini kino san’ati orqali namoyish etadigan badiiy filmlar yaratib, butun jahonga tanitadigan yoshlarni yetishtirishimiz kerak. O‘ylaymizki, mazkur loyiha samarali amalga oshiriladi. Yangi joriy etiladigan dasturlar esa mamlakatimiz, shu jumladan, O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining ham ingliz tili fanidan ta’lim tizimi sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari tuzilayotgan ishchi dastur institutimiz talabalarining kelajakda ingliz tilini o‘z sohalarida erkin qo’llay olib, mamlakatimiz san’ati va madaniyatini butun dunyoga tanitishga yordam beradi.

**Kurshida FAYZULLAYEVA,  
Tahririyat va nashriyot bo‘limi  
muhammari**



## KO‘ZLARING QUVONCHGA TO‘LSIN, BOLAJON!

Bolalar borki, ko‘ngillarni xushnud etuvchi ajib bir quvonch bor, bolalar borki, ulardagи beg‘ubor qalbni his etguvchi tuyg‘ular mujassam. Bolalarning atiga bиргина sof kulgusi kishini butun dardu alamidan, g‘am-g‘ussasidan bir lahza bo‘lsa-da ozod etadi. Ularni ko‘rsangiz ko‘nglingizda nur porlaydi.

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida Tillar va adabiyot kafedrasи dotsentlari Shoira Ramazonova va Sevara Mahmudovalar boshchiligidagi “Ko‘zlarining quvonchga to‘lsin, bolajon” xayriya tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbir munosabati bilan oliygohimizning o‘quv binosiga sovg‘alar uchun maxsus quти o‘rnatildi. Ishtirok etishni istagan professor-o‘qituvchilar va talabalar faoliyat bilan o‘z sovg‘alarini taqdim etdilar.

1-iyun sanasi tonggida institutimizning iqtidorli talabalarini tomonidan institut hovlisida bolalarga atalgan fleshmob uyuştirildi. Shundan so‘ng, yig‘ilgan sovg‘alar tantanali ravishda o‘z egalari tomon yo‘l oldi. Toshkent shahar onkologiya dispanseri, bolalar bo‘limida davolanayotgan

bolajonlarga ularning zehnini oshiradigan sovg‘alar taqdim etildi, ular uchun turli tomoshalar uyushtirildi. Tadbirning ikkinchi qismi Toshkent shahar “Muruvvat” nogiron bolalar uchun 2-sonli internat uyida davom etdi. Talabalar kichkintoylarning kayfiyatlarini ko‘tarish maqsadida ular bilan birga turli aktual o‘yinlar o‘tkazishgan bo‘lsa, Xalq ijodiyoti fakulteti Ma’nnaviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari Suhrob Xidirov boshchiligidagi “EBRU” san’ati ustalari murg‘ak qalb egalarini hayrat olamiga yetakladi. Ko‘zlar chaqnab turgan bolalarni ko‘rib, barchani bolalikka qaytgisi kelgan bo‘lsa ajab emas.

**Dilshod SALOMOV,**  
**“Sahna va ekran san’ati dramaturgiyasи” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**

## ЎЗБЕК СЕРИАЛЛАРИ: КЕЧА ВА БУГУН

**Ўзбекистон Республикаси Санъат арбоби, таниқли режиссёр, кўплаб телесериаллар яратган устоз санъаткор Маҳкамаммадов билан сұхбат**

**Бирга ишилари жараёни қандай кечган?**

— Тўғри айтдингиз, Машраб билан театрда кўп ишилар қилдик. Телевидениеда ҳамкорлик қилиши ўзига хос муракабликларга эга. Зоро, телевидение бу алоҳида санъат тури, мутахассислар уни кичик экран санъати деб атайдилар. Сериални яратишда воқеалар характерини, образлар бадиий ифодасини мана шу специфик масалалардан келиб чиқшишига диккат қиласардик.

Шу орада биз билан баравар Юсуф Розиков “Домла” деган сериал олди. Ҳар серияси 15 минутдан 40 қисмни ўз ичига олган бўлса бизники ҳажм жиҳатидан катттароқ эди. Яъни ҳар бири 40 минут, 51 қисмдан иборат эди. Эҳтимол шунинг учун бўлса керакки, кўплаб матбуот чиқшиларида “Кўнгил кўчалари” биринчи телевизион сериал сифатида тан олинган.

— “Кўнгил кўчалари” сериалини олишибдан мақсадингиз нима эди, ўйлаган мақсадингизга эриша олдингизми?

— Машраб Бобоев билан мақсадимиз катта эди. Дастрлаб сериал нима бўлиши, нима билан бошланиб, оқибати нима билан тугашини ҳам билмасдим. Менга Машраб тушунтириб ҳам бермади, шунга қарамай ишини бошлаб юбордим. Буменинг партизанлигим эди. Шу тариқа беш қисмни суратга олдик. Тасвирчи Рафаэл Камолов билан биргаликда бу ёзи нима бўлади, бундан кейин қандай давом этади, билмаймиз, сериал эса эфирга берилиб, томошабинлар қизиқини пайдо бўлди. Ана шу масъулият ҳам бу ёғига янада нухта ишиларимизга турткি бўлди.

Сериал бир оиласининг тақдирни ҳақида бўлиб, фарзандлар қисмати, ҳаётда ўйл қўйилган савобу гуноҳнинг инсон ҳаётидаги ўрни, таъсирни масаласи ўтрага ташланган. “Кўнгил кўчалари” даги мавзунинг теранлиги, кутимаган муносабатлар томошабинни қизиқтириб қўйди. Сериални биз “Кўй” деб қўйганимиз. Ўзбекчиликда кўча-кўй деган гап бор. “Кўй” дегани тожик тилида


“кўча” дегани. Шу маънода кўнгилниң турфа кўйлари, яъни турди кўчаларини кўрсатни асар сюжетида ўз аксини топган. Телесериал томир отиб шохлаб кетди. Бу шохларни жамлай олмадик, 51 серияда тўхтаб қолди. Моддий маблаг етишимагани туфайли сериал давомини олишини иложи бўлмади.

— Сериал яратишни жараёнида мусиқанинг ўрни бекиёсди. Аммо сиз суратга олган “Кўнгил кўчалари”да кўшиқлардан фойдаланиши тенденцияси ўз даврининг янгилиги эди. Бу сериал учун маҳсус қўшиқ ёздириши фикри қандай түгилган?

— Ҳар қандай овоз режиссёри сериалда ишилар экан, сўнгги безак бериши вактида ҳар бир воқеани таъкидлаб кўрсатишга, умуман сериал учун мухим бўлган бир лейтмотивни топишга ҳаракат килиши керак. Бу нарса демак ўша суратга олиши жараёнидан бошланиб, монтаж жараёнида ўз ниҳоясига этади. Кўплаб сериалларда ҳар бир қисм учун бастакор томонидан маҳсус ёзилган мусиқа ва қўшиқлар борки, бу восита нафақат асарга томошабинни жалб этади, балки асар воқеаларини таъкидлайди, ёритиб беради, қаҳрамонларини эслатади, асарнинг умумий бош гоясини очиб беради. Шу маънода “Кўнгил кўчалари” учун лейтмотив яратишни ҳам ўзига хос ижодий жараён бўлди. Кўччилик мухлислар эътиборини қозонган хонанда Анвар Фаниев билан ҳамкорлик қилдик.

— Бугунги кунда кўплаб сериаллар яратилмоқда, уларнинг савиаси ҳам турлича. Айтингчи, янги сериаллардан кўнглингиз тўлаяптими, сизнингча уларнинг муваффақияти, ютуқлари ёки камчиликлари нимада?

— Музaffer Эркиновнинг “Саодат” деб номланган сериални менга маъкул бўлди, ҳар қалай ижтимоий мавзу олиб чиқилган. Бу сериал ҳозирги кунда коллежни битираётган ёшларнинг ахлоқ-



сиз ишилари, йўлни тополмай ёмон йўлга кириб кетишлари, шундай вазиятда бир ўқитувчи уларни йўлга солиши ҳақида. Мен ижтимоий мавзуларни яхши кўраман, қуруқ мавзу томошабинга маънавий озуқа беролмайди. “Саодат” ҳам айнан томошабин учун фойдали хусусиятларга эга сериаллардан деб биламан. Ҳозир давомини суратга олишяти, лекин қандай натижка бўлади, буни олдиндан айтуб бўлмайди. Мухими, ижодий жамоа мавзу танлаш ва талқин этиши борасида тўғри ўйдан кетмоқда.

— Ўзбек сериалларининг истиқболини қандай тасаввур қиласиз?

— Мамлакатимизда миллий сериал яратиш борасида ўз мактабимиз бор, ўзимизга хос анъаналаримиз шакланган. Мен унинг истиқболига ишонаман ва ўз нафбатида бу анъаналар маҳоратли ёшларимиз томонидан давом эттирилиши, янада бойитилиши, энг мухими халқимиз маънавиятига муносаб асарлар кўпайшини чин дилдан истайман. Зоро, миллий маданиятимизнинг эртанги куни, юксак маънавиятимизнинг келажаги бўгунги кун телевизион санъати равнақига бениҳоя боғлиқдир.

**Малика НУРИЛЛАЕВА,  
“Овоз режиссёrlиги” мутахассислиги  
1-босқич магистранти**

## КОМИЛЛИККА ИНТИЛИШ

фазилатли, комил инсон бўлишни ўз олдига мақсад қилиб қўймаган актёр саҳнада бунинг акси бўлган салбий хислатли персонажни тўлақонли яратиши мумкин эмас. Чунки қалбига комилликни сингдирган актёргина салбий персонажни ўзи тушуниб тасвирлар экан, бу жараён албатта томошабинда ушбу образга нисбатан ишончни, истехzonни ва нафратни уйготади. Сабаби, актёр салбий образ киёфасида хатти-ҳаракат қиласар экан, унинг бу ҳаракатлари заминида, сўзлашув услуги, сўзининг рангидаги ўзи яратадиган образга нисбатан пинхоний нафрат ётади. Бу пинхоний муносабат бевосита томошабинга кўчади. Театр санъати тарихидан маълум, кучли сатирик ёки салбий персонажларни фақат юксак маънавияти, дунёқараши кенг, интеллектуал салоҳияти юқори бўлган санъаткорларгина маҳорат билан ижро эта олган. Улар яхшиликка интилишни, ҳамиша инсоннинг оғирини енгил қилиб яшашга уринишни ўз олдиларига мақсад қилиб қўйишган. Комилликка интилиш — комил инсон бўлишнинг биринчи пиллапоясиdir, дейди устозларимиз.

Ижобий қаҳрамон ролини ўйнаётган актёр ўзининг эмоционал хотирасига таяниб ўз персонажининг томошабинга таъсирчанлигини ошириши мумкин. Лекин салбий киёфани ифода этаётган актёр нима қилиши керак? У ҳам ўз эмоционал хотирасига мурожаат этади. Аммо актёр бундай пайтда ўзининг салбий хислатининг номақбул эканлигини тушуниб етган бўлиши керак. Масалан, ўқиши йилларида курсимизнинг диплом спектакли учун Мақсуд Шайхзоданинг “Мирзо Улуғбек” асари олинди. Устозимиз менга Абдулатиф ролини топширдилар. Асар билан танишиб чиққанимиздаёқ менда бу ролга нисбатан иччи газаб пайдо бўлган эди. Шунинг учун дарров устозимизнинг карорларига қаршилик қилдим. “Мен бу ролни ўйнамайман”, дедим. Шунда устоз сабабини сўрадилар. Мен Абдулатифнинг очкўзлиги, хиёнаткорлиги, таҳт учун ҳатто

ўз отасига қарши бориши нафратимни қўзғатишини айтдим. Менга бундан олдинги ишимиз — биринчи диплом спектаклидаги ижобий хислатли Самандар каби ролларни ўйнаш, ўз дардимни тўқиб олиш жуда ёқарди. Абдулатиф ролини ўйнасан хамма мени ёмон кўриб қоладигандек туюларди. Шунда устозимиз: агар сенда Абдулатифнинг ҳаракатларига нисбатан нафрат бўлса, демак сен бу ролни уddyалай оласан. Чунки салбий ролни ўйнаётган актёр доимо бу хислатнинг номаъкул эканлигини хис қилиб туриши керак. Томошабин ҳам буни гайритабиий ҳолда хис этиб туради. Акс ҳолда томошабин ролни эмас, актёргинг ўзини ёмон кўриб қолиши мумкин. Ўйлайманки, сен билан бундай ҳол рўй бермайди, — дедилар. Шундай қилиб repetetия жараёнлари бошланди. Менда эса ҳар доим ўзимнинг саҳнада яратадиган ролимга нисбатан қандайдир ички бир нафрат ҳамрохлик қилиб турарди. Иш жараёнда ҳатто Абдулатифни жазолаш фикри туғилди. Чунки асар тарихий мавзууда ёзилганлиги учун тарихий фактни бузмаслик мақсадиди бўлса керак, Абдулатифда ўз қилмишларидан пушаймонлик йўқдек эди. Мен устозга Абдулатифнинг афсус - надоматини ифодаловчи ария ёздириш таклифини айтдим. Чунки биз “Мирзо Улуғбек” пъесасининг мусиқий версиясини тайёрлаётган эдик. Композитор иш жараёндан келиб чиқиб ария ва хораллар ёзиб келаётган эди. Таклифимиз композиторга маъкул тушди ва у ария эмас, ариоза ёзиб келди. Ариоза спектаклнинг ва мен ўйнаган салбий қаҳрамон Абдулатиф ролининг ечимига мос тушди. Сўнгги саҳна кучли драматик қиёфа олди. Спектаклдан сўнг хамма мени табриклаганда, хеч ким мени ёмон кўриб қолмаганини, ролим муваффақиятили чиққанлигининг гувоҳи бўлдим.

**Маъмуржон ТЎРАЕВ,  
Театр санъати факультети услубчи**

## ОНА ВАТАННИНГ МАРД ЎГЛОНИ

Ютимизда истеъодли ёшларни қўллаб-кувватлаш, уларнинг иқтидори ва маҳоратини янада юксалтириш йўлида қатор ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-кувватлаш тўғрисида”ги ПФ-5106-сонли Фармонига мувофиқ “Мард ўғлон” давлат мукофоти таъсис этилганлиги ҳам дикқатга сазовордир. Жорий йилнинг Ёшлар куни арафасида мазкур мукофот ўзининг ўқиши ва иш фаолияти давомида мамлакатимиизда буюк аждодларимизга муносиб бўлган, мардлик ва жасорат, қатъянилил, ҳалоллик, ватанпарварлик қаби фазилатларга эга мард ўғлонларимизни тарбиялаш ҳамда жамиятимиз хаётининг турли соҳаларида юкори натижаларга эришиб келаётган билимли, ташаббускор, ишбилармон, шижаотли ва фидойи йигитларни рафбатлантириш мақсадида асл эгаларига топширилди.

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Халқ ижодиёти” факультети, “Халқ ашула ва ракс ансамбларида раҳбарлик” таълим йўналиши 4-курс талабаси Одилхўжа Каюмхўжаев Икромхўжа ўғли ҳам ушбу фаҳрий мукофотга лойик деб топилди. Мазкур ютуқ давлатимиз раҳбарининг республикамизда санъат ва маданият соҳаларига берган юқсак эътибори ҳамда эътирофи натижаси ҳисобланса ажаб эмас.

“Мард ўғлон” мукофоти соҳиби Одилхўжа Каюмхўжаев 1994 йили Сирдарё вилоятида туғилган. Болалигидан анъанавий созандалик ва ижрочилик соҳаларига кизиқиб келади. 2008 йили Тошкент шаҳрида анъанавий хонандалик бўйича ўтказилган Мухиддин Кориёкубов номидаги Республика кўрик-танловида олий ўринни, 2014 йили Санкт-Петербург шаҳрида анъанавий созандалик

бўйича ўтказилган “Балтийский берег” ҳалқаро танловида фаҳрли 1-ўринни, 2015 йили “Созлар навоси” Республика танловида бош совринни қўлга киритган. Ҳозирда олий таълим муассасасида ўз қобилиятларини янада шакллантириш йўлида юкори малакали ўқитувчи-профессорлардан сабоқ олиб келмокда.

Одилхўжа Каюмхўжаев ўзидаги ёрқин истеъодидни янада шакллантириш ҳамда “Мард ўғлон” давлат мукофотига эришиш йўлида устозлик қилган Республика Маданият коллежи катта ўқитувчиси Нажотхон Тўрахўжаев, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти фаҳрий профессорлари Ўзбекистон ҳалқ ҳофизи Оролмирзо Сафаров, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Комилжон Мирзаев ҳамда бошқа педагогларнинг ҳиссалари катта бўлди. Мусикий



билимларни эгаллаш, ўзбек миллий чолғу асбобларини юкори маҳорат илила чалиш, соҳанинг сир-асрорларини чукур ўрганиш тамойиллари битирувчи талабанинг ҳаёт шиорига ва келажак мақсадига айланган.

Одилхўжа Каюмхўжаев муҳтарам Президентимиз мукофот учун таъсис этган рафбатлантирувчи пул маблағларини келгуси ижодий ишларига, мусикий билим ва қобилиятларини янада ривожлантиришга сафарбар этмоқчи. Она Ватаннинг мард ўғлонига улкан ижодий парвозлар, самарали ютуклар тилаймиз!

**Достонбек РАҲМАТУЛЛАЕВ,**  
**Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти**  
**матбуот хизмати котиби**

## ADASHGAN XAT

«Yuragimni qamragan sog ‘inch,  
 Har qadamda eslayman sizni.  
 Hatto tunlar uxlolmayman tinch,  
 Tushlarimdan izlayman sizni.

Jodu kabi tortarkan mehr,  
 Xat yozarman bedor tunlari.  
 Sog ‘inganda ortarkan mehr,  
 Shukur, yaqin diyord kunlari...»

Har haftaning yakshanbasida  
 Takrorlanar oddiy odat bu.  
 Bir yigitdan rafiqasiga  
 Jo ‘natilgan o ‘ninch xat bu.

Bu gal biroz bosdimi g ‘aflat  
 O’rtada xat tashuvchi qushni –



Xotiniga yozilgan bu xat  
 Onasining qo ‘liga tushdi.

Xotin o ‘zi bilan ovora,  
 Na xat, na er bilan ishi yo ‘q.  
 Ammo bugun bu keng dunyoda  
 Onasidan baxtli kishi yo ‘q.

Menga aql o ‘rgatma, demang  
 Bir shoirmi telba atashib.  
 Xat bitganda onangizga ham  
 Yozib turing, mayli, adashib.

*Iftixor XONXO’JAYEV,*  
 “Madaniyat va san’at muassasalarini  
 faoliyatini tashkil etish va boshqarish”  
 ta’lim yo ‘nalishi 1-bosqich talabasi

## O’ZIMNING AFSONAM

*Qadim zamon edi, ko ‘p moziy taraf,  
 “Telbaga o ‘lim!” deb bong urmish avom.  
 O’z ishqidek chayir sirtmoqqa qarab  
 Olib kelishardi shoirni. Tamom –  
 Unga yengil jazo – o ‘limdir endi!  
 Uning yo ‘li mening yo ‘limdir endi.  
 Ul oshiq men edim, oshiqqum hamon,  
 Oyqiz, seni shunda ko ‘rib edimmi?*

*O’g’ilar barmog ‘i kesilmish yurtda  
 Kezar yelkagacha kezar bir darvish.  
 Aybi – malikaning (necha o ‘n marta)  
 Xayolin o ‘g’irlab gunoh qilgannish.  
 Men edim o ‘shal ham. Ayab etimni –  
 Tonmadim aybimdan, ko ‘ngil – metinni  
 Uzmadim, kesmadim, cho ‘ktiramadim hech,  
 Oyqiz, seni bunda ko ‘rib edimmi?  
 Yaqin tarix edi. Qo ‘rboshi bilan  
 Erkparvar er yigit yelkama-yelka*

*Kurashdi bardoshi qo ‘rg ‘oshin bo ‘lib.  
 So ‘nggi tomchi qoni qolganda tilga  
 Kirdi-yu, jon berdi. Shudir tutmi:  
 “Bosqinchi olmasin mazlum budunni!”  
 Bosmachi men edim, senmiding budun?  
 Oyqiz, seni shunda ko ‘rib edimmi?*

*Tarix – chelagi tashlangan chig ‘iriq,  
 Toldim undan o ‘z afsonam qidirib.  
 Ko ‘zlarimni uzolmadim ko ‘zingdan  
 Xayolini olar chog ‘i sug ‘urib.  
 Omon topmas ishqdan oshiq, rost endi,  
 O’tmish o ‘tgan, dostonlar abas endi.  
 Oyqiz, seni bunda ko ‘rib turibman,  
 Oyqiz, ishqing tirk qo ‘ysa bas endi...  
 Shavkat DO‘STMUHAMMAD,  
 “Sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi”  
 ta’lim yo ‘nalishi 3-bosqich talabasi*

## DO‘ST

Mol-u dunyo kutmagin,  
 Ey birodar, do ‘stingdan.  
 Shikoyat ham qilmagin,  
 Hatto kam-u ko ‘stingdan.

So ‘zlamagin yolg ‘ondan,  
 Gapir faqat rostingdan.  
 Do ‘sting omad qushidir  
 Uchirmagin boshingdan.

Do ‘stlik ipingni bog ‘la,  
 Uzilmasin tortilsa,  
 U ham yelkasin tutsin,  
 Yelkangi yuk ortilsa.

Yonar bo ‘lsang gulxanda  
 Men yonay deb otilda,  
 Do ‘sting o ‘shanda do ‘stdir  
 Do ‘stmas pulga sotilsa.

Senga vijdonli do ‘stlar  
 Tilayman men, birodar,  
 Abadiy do ‘st bo ‘lishni,  
 So ‘rayman men, birodar.

*O’rolbek QILICHEV,  
 “Qo ‘g ‘irchoq teatri aktyorligi”  
 ta’lim yo ‘nalishi 2-bosqich  
 talabasi*

## Kitob mutolaasi taassurotlari

## QALBIM TO‘FONI

“Saodat asri qissalari”, “Qaynona”, “O’gay ona” каби betakror asarlari bilan kitobxonlar qalbidan joy olgan Ahmad Lutfi Qozonchinig qalamiga mansub navbatdagi ijod mahsuli “So ‘nggi to ‘fon” asari qalbimdan joy olishga ulgurdi. Insoniylikni kuylovchi ushbu asar qalbimni larzaga keltirdi. Butun umrim davomida qilgan yaxshi va yomon ishlarni saralashga undadi.

Halollik naqadar buyuk insoniy fazilat ekanligi va afsuski har kim ham halol yashay olmasligini angladim. Mutolaa qilgan ko ‘plab asarlar menda shukronalik hissini uyg ‘otadi. Teranroq fikrashga undaydi. O’zimga savol berdim. Agar men ham qahramon Hasanning o ‘rnida bo ‘lganimda qiyinchiliklarga bardosh bera olarmidim? U kabi sabrli va diyonlatli bo ‘la olarmidim? Bolaligidanoq turli sinovlarda toblangan, och va kambag ‘alligi yetmagandek otasining zulmi tufayli na o ‘zi na onasi ro ‘shnolik ko ‘rmadi. Asarni o ‘qish jarayonida “nega qochib ketaqolmaydi?”, “Nega endi bu beg ‘ubor va halol bolakay o ‘ta ketgan razil va be ‘mani otasi qilmishlariga chidashi kerak, sinfdoshlari va el-yurt oldida izza bo ‘lishi kerak? Qattiq achinish hissi meni unga bog ‘lab qo ‘ydi. Ochig ‘i men ushbu asarni hali tugata turmay yana bir bor o ‘qiymen degan fikr o ‘tdi. Vaholanki, bunday holat har doim ham kitobxon xayoliga kelmaydi. Fikrlar, taassurotlar talaygina. Xulosa esa azizlar o ‘zimizdan. Kim qay yo ‘lni tanlaydi qanday hayot kechiradi, albatta, o ‘zimizga bog ‘liq!

Kitob o ‘qing aziz tengdoshim!

**Mohidil ESONBOYEVA,**

“Kino tanqidi va tahlili” ta’lim yo ‘nalishi 2-bosqich talabasi

## Muassis:

О‘zbekiston davlat san’at va  
 madaniyat instituti

Bosh muharrir:  
 Nafisa RAIMQULOVA

### Tahrir hay’ati:

Go ‘zal XOLIQULOVA

Hamadan ISMOIROV

Antonino KOSHELEVA

Rashid USNATOV

### Mas’ul kotib:

Kurshida FAYZULLAYEVA

Muxbirlar klubu sardorlari:

Muharram BOZOROVA

Shavkat DO ‘STBEKOV

### Tahririyat manzili:

100025 Toshkent shahri, Mirzo

Ulug ‘bek tumani, Yalang ‘och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (0-371) 230-28-13.

www.dsni.uz; dsni\_info@olam.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.

Manzil: O ‘rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash ‘al mahallası, Markaz – 1.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo ‘limida tayyorlandi.

O ‘lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.

Nusxasi – 1250 dona. Narxi kelishilgan narxda.

Chop etishega 30.06.2018 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro ‘yxtatga olingan.

Buyurtma - 411

## ҚАБУЛ – 2018

“2018/2019 ўкув йилида Ўзбекистон Республикасининг Олий таълим муассасалари ўқишига қабул килиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республика Президентининг 2018 йил 4 июндаги қарорида Республика иқтисодиёти тармоқлари ва соҳаларида эҳтиёж юкори бўлган мутахассисликлар бўйича юкори малакали мутахассисларни сифатли тайёрлашини таъминлаш, бакалавр ва магистрларни тайёрлашда иш берувчиларнинг жорий ва истиқболдаги эҳтиёжларни инобатга олган холда сон ва таълим йўналишлари йўғуллигига эришиш, олий таълим муассасалари битирувчилари мехнатидан тармоқ, ҳудудий ва мақсадли лойихалар портфелларини инобатга олган холда фойдаланишини яхшилаш мақсадига, шунингдек, 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини Фаол тадбиркорлик, инновацион гоялар ва технологияларни қўллаб-кувватлаш йилида амалга оширишга оид давлат дастурига мувофиқ институтнинг бакалавриат таълим йўналишлари ва магистрatura мутахассисликларига ҳамда биринчи маротаба актёрлик санъати таълим йўналиши негизига маҳсус сиртқи бўлимига қабулини амалга ошириш режалаштирилмоқда.

2018/2019 ўкув йили учун 19 та бакалавриат таълим йўналишлари 109 нафар давлат гранти асосида, 381 нафар тўлов-контракт асосида, 31 нафар тўлов-контракт асосида, махсус сиртқи бўлимига 50 та тўлов-контракт асосида ўқишига қабул килиш тартибини янада таомиллаштириш тўғрисида” 2018 йил 3 апрелдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси карорининг 2-иловасига мувофиқ Бакалавриатга тест синовларисиз, касбий (ижодий) имтиҳонлар орқали ўқишига қабул килиш бўйича таълим йўналишлари рўйхати тасдиқланган бўлиб, институтнинг Санъатшунослик (турлари бўйича), Актёрлик санъати (турлари бўйича), Режиссёрик (турлари бўйича), Халқ ижодиёти (турлари бўйича) таълим йўналишлари мазкур рўйхатга киритилган. Ушбу йўналишларда тест ўтказилмасдан уч босқичда ижодий имтиҳонлар ўтказилади. 2018/2019 ўкув йили кабулини юкори савиядга ташкил этиш учун институтда барча шарт-шароитлар яратилди.

Абдурасул ЎРОЗОВ,  
 Кабул комиссияси масъул котиби